



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerlarni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING
XORIJ TAJRIBASI TAHLILI**

**АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К
РЕГУЛИРОВАНИЮ РЫНКА ТРУДА**

**ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN INNOVATIVE APPROACHES TO
LABOR MARKET REGULATION**

Burxonov Jamoliddin Xusniddin o‘g‘li

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti, Namangan manzili magistranti

Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich

Namangan davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashtirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mehnat bozorini tartibga solishning innovatsion yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida Germaniya, Singapur va Estoniya kabi davlatlarning mehnat resurslarini boshqarish, uzluksiz ta’lim va raqamli bandlikni rag‘batlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Maqola yakunida milliy mehnat bozorini modernizatsiya qilish va ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, innovatsion yondashuv, xorij tajribasi, raqamli iqtisodiyot, bandlik siyosati, inson kapitali, platformalik bandlik.

В данной статье исследуются инновационные подходы к регулированию рынка труда в условиях глобализации и цифровизации экономики. В ходе исследования проведен сравнительный анализ передового опыта таких стран, как Германия, Сингапур и Эстония, в области управления трудовыми ресурсами, непрерывного образования и стимулирования цифровой занятости. В завершение статьи разработаны научные предложения, направленные на модернизацию национального рынка труда и повышение конкурентоспособности рабочей силы.

Ключевые слова: рынок труда, инновационный подход, зарубежный опыт, цифровая экономика, политика занятости, человеческий капитал, платформенная занятость.

This article examines innovative approaches to labor market regulation in the context of globalization and economic digitalization. The study provides a comparative analysis of the best practices from countries such as Germany, Singapore, and Estonia in human resource management, lifelong learning, and promoting digital employment. The paper concludes with scientific proposals aimed at modernizing the national labor market and increasing the competitiveness of the workforce.

Keywords: labor market, innovative approach, foreign experience, digital economy, employment policy, human capital, platform employment.

XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib, jahon iqtisodiyoti fundamental transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning markazida mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning eng sezgir indikatorini turibdi. An’anaviy mehnat bozori modellari o‘zining ekstensiv rivojlanish bosqichini yakunlab, innovatsion, raqamli va intellektual salohiyatga asoslangan yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bugungi kunda mehnat bozorini tartibga solish shunchaki bandlikni ta’minlash emas, balki inson kapitalini texnologik konvergensiya sharoitida boshqarish masalasiga aylandi.

Global miqyosda mehnat bozoriga ta'sir etayotgan asosiy drayver bu raqamli texnologiyalarning mehnat jarayonlariga destruktiv va konstruktiv ta'siridir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Jahon iqtisodiy forumi prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib dunyo bo'ylab 85 millionga yaqin ish o'rinlari avtomatlashtirish qurboniga aylanishi, biroq uning o'rniga 97 milliondan ortiq yangi, yuqori texnologik ko'nikmalarni talab qiluvchi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Bu jarayon mehnat bozorida malaka uzilishi va malaka nomutanosibligi kabi tizimli inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Rivojlangan davlatlar ushbu muammolarni hal qilishda an'anaviy byurokratik usullardan voz kechib, innovatsion boshqaruv modellariga o'tmoqdalar.

Mehnat bozorini tartibga solishda xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchisi, instrumental innovatsiyalar sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalari yordamida bandlikni monitoring qilish va prognozlash. Ikkinchisi esa, institutsional innovatsiyalar masofaviy bandlik, platformalik iqtisodiyot kabi yangi huquqiy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishdir.

O'zbekiston sharoitida demografik jihatdan yosh aholining ko'pligidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish uchun xorijiy innovatsion modellarni tahlil qilish va ularning institutsional transplantatsiyasi imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning mehnat bozorini tartibga solish tizimlari, subyekti sifatida esa ushbu tizimlarda qo'llanilayotgan innovatsion uslublar, huquqiy normalar va raqamli texnologiyalar majmuasi olinadi.

Ushbu maqolaning maqsadi nafaqat xorij tajribasini tavsiflash, balki mehnat bozorini tartibga solishning oldindan ko'ra biluvchi boshqaruv modelini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mehnat bozoridagi algoritmik boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish va ularning milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy ishsizlikni kamaytirishdagi rolini aniqlash bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqot mehnat bozorini tartibga solishning innovatsion mexanizmlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash maqsadida kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy tahlil usullarining sintezi asosida mantiqiy bosqichlarda amalga oshirildi. Tadqiqotda mehnat bozorini tartibga solishning uchta asosiy modeli tanlab olindi va qiyoslandi:

- Sotsial-demokratik model (Skandinaviya davlatlari) — yuqori darajadagi ijtimoiy himoya va qayta tayyorlashga asoslangan tizimi;
- Liberal-texnologik model (AQSh, Singapur) — bozordagi o'z-o'zini tartibga solish va raqamli ko'nikmalarga investitsiya kiritish ustuvorligi;
- Kontinental model (Germaniya, Fransiya) — kasaba uyushmalari va davlatning mehnat munosabatlaridagi faol ishtiroki.

Ushbu modellar o'rtasidagi farqlar institutsional nazariyasi prizmasi orqali, ya'ni muvaffaqiyatli institutlarni milliy iqtisodiyotga ko'chirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganildi.

Tahlil davomida Labor Market Innovation, Algorithmic Management, Digital Labor Platforms kabi kalit so'zlar bo'yicha 150 dan ortiq maqolalar tahlildan o'tkazildi. Bu mehnat bozoridagi zamonaviy trendlar va ilmiy gipotezalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning ta'sirini baholash uchun "nima bo'ladi, agar?" usuli qo'llanildi. Bunda raqamlashtirish darajasi va davlatning regulyatorlik faolligi o'zgaruvchi parametrlar sifatida olinib, mehnat bozori rivojlanishining optimistik ba pessimistik ssenariylari modelashtirildi.

Maqolada innovatsiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligi o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash maqsadida mamlakatlarning ochiq ma'lumotlari asosida statistik guruhlash usuli qo'llanildi. Bu xorij tajribasining samaradorligini shunchaki nazariy emas, balki empirik dalillar bilan isbotlash imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari, Jahon bankining hisobotlari, Eurostat va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari tashkil etdi. To'plangan ma'lumotlar triangulyatsiya usuli yordamida qayta tekshirildi, ya'ni turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir-biri bilan solishtirilib, xulosalarning obyektivligi ta'minlandi.

Mehnat bozorini innovatsion tartibga solishning xorij tajribasini tahlil qilish natijasida uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha ijobiy natijadorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Ushbu natijalar mehnat unumdorligi va bandlik barqarorligining fundamental asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Daniya va Niderlandiya tajribasida qo‘llanilgan Moslashuvchan xavfsizlik kontseptsiyasining natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorini qat’iy qonunlar bilan emas, balki faol mobilizatsiya orqali tartibga solish samaraliroqdir. Ish beruvchilarga xodimlarni qisqartirishda erkinlik beriladi, biroq davlat ishdan bo‘shatilgan xodimning daromadini 80-90% gacha kompensatsiya qiladi. Daniyada har yili ishchi kuchining qariyb 25-30 foizi o‘z ish joyini o‘zgartiradi, bu esa iqtisodiyotning texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Ishsizlikning o‘rtacha davomiyligi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlariga nisbatan 1.5 baravarga qisqaroq.

Singapur tajribasi mehnat bozorini tartibga solishda "davlat-ta’lim-ish beruvchi" zanjirini raqamli platforma orqali birlashtirishning eng muvaffaqiyatli namunasi sifatida aniqlandi. Har bir 25 yoshdan oshgan fuqaroga shaxsiy ko‘nikmalar hisobvarag‘i ochilgan. Davlat ushbu hisobga muntazam ravishda subsidiyalar o‘tkazib, fuqaroning mehnat bozoridagi talabgor yo‘nalishlar bo‘yicha qayta o‘qishini moliyalashtiradi. Dastur joriy etilgandan so‘ng, mamlakatda 40 yoshdan oshgan ishchilar o‘rtasida texnologik ishsizlik darajasi 12 foizga kamaydi.

G‘arbiy Yevropa (Fransiya va Ispaniya) tajribasida raqamli platformalar orqali band bo‘lganlarni tartibga solishning innovatsion huquqiy natijalari ko‘zga tashlanadi.

1-jadval. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion modellarning qiyosiy ko‘rsatkichlari (2020-2023 yillar tahlili asosida)

Mamlakat modeli	Innovatsion yondashuv nomi	Asosiy indikator (Samaradorlik)	Ijtimoiy himoya darajasi
Skandinaviya	Flexicurity	Mehnat mobilligi: Yuqori	Maksimal (Davlat hisobidan)
Singapur	SkillsFuture	Ko‘nikmalar mosligi: 85%	Individual (Vaucher tizimi)
Yevropa Ittifoqi	Platform Work Directive	Norasmiy bandlikning qisqarishi: 15%	Gibrid (Platforma + Davlat)
Estoniya	e-Residency & Digital ID	Ma’muriy xarajatlar qisqarishi: 30%	Yuqori raqamlashtirilgan

Estoniya va Germaniya tajribasida mehnat bozorini tartibga solishda bashorat qiluvchi tahlil metodlari joriy etilgan. Germaniyaning Federal bandlik agentligi sun’iy intellekt tizimidan foydalangan holda, hududlar kesimida qaysi mutaxassisliklarga ehtiyoj tug‘ilishini 6-12 oy oldindan prognoz qiladi. Bu esa oliy ta’lim kvotalarini real ehtiyojga qarab operativ tarzda o‘zgartirish imkonini beradi.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy mehnat bozorida davlatning roli nazorat qiluvchidan ekotizim yaratuvchiga o‘zgarmoqda. Innovatsion yondashuvlar ishsizlarni ijtimoiy yordamga bog‘lab qo‘yish o‘rniga, ularning professional transformatsiyasini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorini tartibga solishning xorijiy innovatsion modellari shunchaki texnologik yechim emas, balki chuqur institutsional islohotlar mahsulidir. Olingan natijalarni O‘zbekistonning hozirgi mehnat bozori konyunkturasi bilan qiyosiy tahlil qilish bir qator fundamental xulosalarni ilgari suradi.

Daniya modeli mehnat bozorini liberallashtirish va kuchli ijtimoiy kafolatlar balansiga tayanadi. O‘zbekistonda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi ish beruvchilarga ma’lum darajada moslashuvchanlik bergan bo‘lsa-da, ishsizlik nafaqasi va qayta o‘qitish tizimining moliyaviy barqarorligi hamon past darajada qolmoqda. Xorij tajribasi ko‘rsatganidek, agar davlat ishdan bo‘shatilgan xodimning daromad xavfsizligini ta’minlay olmasa, bozordagi har qanday liberallashtirish ijtimoiy taranglikka va norasmiy bandlikning o‘sishiga olib keladi.

Singapurning tajribasi bizdagi oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzilishni hal qilishda eng maqbul yo‘nalishdir. O‘zbekistonda bitiruvchilarning qariyb 40-50 foizi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamayotganligi mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Muhokama qilinayotgan innovatsion yondashuv shuni anglatadiki, ta’lim tizimi diplom beruvchi emas, balki mehnat bozoridagi real ko‘nikmalarga talab asosida shakllanuvchi modulga aylanishi shart.

Estoniya va Germaniya tajribasidagi raqamli monitoring tizimlari mehnat bozorini shaffoflashtiradi. Biroq, muhokama qilinishi lozim bo‘lgan salbiy jihat shundaki, algoritmik boshqaruv mehnat munosabatlarining insoniylikdan yiroqlashishiga olib kelishi mumkin. Platformasi bandlik sharoitida ishchi va ish beruvchi o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlik yo‘qoladi. O‘zbekistonda masofaviy ishlovchilar soni o‘sib borayotganini hisobga olsak, ularni o‘zini-o‘zi band qilgan toifasidan to‘laqonli ijtimoiy himoyalangan subyekt darajasiga ko‘tarishning huquqiy mexanizmlari xorij tajribasidagi eng dolzarb o‘rganiladigan nuqtadir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion tartibga solish faqatgina raqamli platformalar yaratish bilan cheklanmaydi. U mehnat psixologiyasi va motivatsiyasini ham o‘zgartirishi kerak. Xorijiy tajribadagi Umr bo‘yi ta’lim tushunchasini milliy mentalitetga singdirish uchun mehnat staji tushunchasini malaka staji tushunchasiga transformatsiya qilish taklif etiladi.

Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuv bu texnologiya va inson huquqlari o‘rtasidagi yangi ijtimoiy kelishuvdir. O‘zbekiston ushbu jarayonda aqlli regulatsiya tamoyilini qo‘llashi, ya’ni tadbirkorga erkinlik bergan holda ishchining ijtimoiy kapitalini saqlab qolishi strategik vazifadir.

Zamonaviy sharoitda davlatning roli bevosita ma’muriy aralashuvdan ekotizimni moderatsiyaga o‘tmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorini samarali tartibga solish faqatgina ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish emas, balki ishchi kuchining texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ta’minlashga bog‘liq.

Singapur va Germaniya modellari diplom iqtisodiyotidan ko‘nikmalar iqtisodiyotiga o‘tishning muvaffaqiyatli namunalari. Bu jarayonda Umr bo‘yi ta’lim konsepsiyasi ishsizlik darajasini pasaytirishning eng samarali innovatsion instrumenti ekanligi isbotlandi.

Frilanserlar va raqamli platformalar orqali ishlovchilar uchun mikro-sug‘urta tizimini yaratish. Bu ularga pensiya va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash bilan birga, iqtisodiyotning yashirin qismini qisqartirishga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt yordamida keyingi 5-10 yilda hududlar va tarmoqlar kesimida qaysi mutaxassisliklar yo‘qolishi va qaysilari paydo bo‘lishini prognoz qiluvchi milliy platformani ishga tushirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. (2022). O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktyabrdagi O‘RQ-798-son Qonuni.
2. World Economic Forum. (2023). The Future of Jobs Report 2023. Geneva: WEF.
3. International Labour Organization (ILO). (2024). World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: ILO.
4. OECD. (2022). OECD Employment Outlook 2022: Building Back More Inclusive Labour Markets. Paris: OECD Publishing.
5. Schmid, G., & Gazier, B. (2002). The Dynamics of Full Employment: Social Integration Through Transitional Labour Markets. Cheltenham: Edward Elgar.